

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

T.S.Axmedova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati	214
Z.O.Qosimoy	
Oliy tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	218
M.A.Usmanov	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
A.A.Minavarov	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
G.K.Usmanova	
Tibbiyot ta'lif muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati	231
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarining texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi.....	234
C.Y.Анварбекова	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике	238
Д.М.Азимова	
Дистанционное образование в обучения иностранному языку: эффективность и критерии	242
Д.Ф.Керимов	
Anketirovaniye kak metod issledovaniya ispolzovaniya IT tekhnologij v obrazovatel'nom i trenerovochnom processse	247
S.A.Mirzaqobilova	
Inklyuziv ta'lilda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	255
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati	260
F.O'.Toshboltaev	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni	264
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi	267
S.A.Xayrullayev	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi	271
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarida analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari.....	275
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	279
N.T.Abdullajonova	
Germenevlik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati	282
Y.H.Teshayeva	
Ilimga yo'g'rilgan umr	286
Sh.B.Sattorova	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
M.F.O'rmonova	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida)	295
S.A.Rahmonberdiyeva	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari	298
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarining kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash	303



УО'К: 101.1

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KONSOLIDATSIYA OMILLARI TAVSIFI**ОПИСАНИЕ ФАКТОРОВ КОНСОЛИДАЦИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СТАБИЛЬНОСТИ
ОБЩЕСТВА****DESCRIPTION OF FACTORS OF CONSOLIDATION IN ENSURING SOCIETY STABILITY****Xayrullayev Sirojiddin Axmadullo o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillarining nazariy-metodologik asoslari, ijtimoiy konsolidatsiya omillarining dialektik xususiyatlari, jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiyaning amalga oshirish zaruriyati va istiqbollari o'rganilgan. Shuningdek, jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tahlil qilingan.

Annotation

В статье исследованы теоретико-методологические основы факторов консолидации в обеспечении социальной стабильности, диалектические особенности факторов социальной консолидации, необходимость и перспективы консолидации в обеспечении социальной стабильности. Также были проанализированы факторы консолидации в обеспечении стабильности общества.

Abstract

The article examines the theoretical and methodological foundations of consolidation factors in ensuring social stability, dialectical features of social consolidation factors, the necessity and prospects of consolidation in ensuring social stability. Consolidation factors in ensuring the stability of the society were also analyzed

Kalit so'zlar: jamiyat, barqarorlik, konsolidatsiya, dialektik, tarixiy, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit, ijtimoiy muhit, falsafiy, adolat, ilmiy-metodologik asos, tarixiy-falsafiy tahlil, ijtimoiy konsolidatsiya.

Ключевые слова: общество, стабильность, консолидация, диалектические, исторические, социокультурные условия, социальная среда, философская, справедливость, научно-методологическая основа, историко-философский анализ, социальная консолидация.

Key words: society, stability, consolidation, dialectical, historical, socio-cultural conditions, social environment, philosophical, justice, scientific-methodological basis, historical-philosophical analysis, social consolidation.

KIRISH

Jamiyat barqaror rivojlanish bosqichini ko'zlab islohotlarni amalga oshirar ekan mazkur jarayonlarda ilmiy-nazariy qarashlarini shakllantirish yangi taraqqiyot bosqichi uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jamiyatdagi yuksalish shaxslarni yaratuvchanlik faoliyatini sohalarga samarali tadbiq qilish orqali milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichiga xizmat qiladi. Bu o'z navbatida jamiyat rivojini ta'minlashga xizmat qiluvchi dasturlarni ishlab chiqish bilan ijtimoiy muammolarni oldini olish ustuvor vazifalarni tadqiq etishni talab etadi. Shuning uchun ham ijtimoiy konsolidatsiya jarayonlarida jamiyat gohida yuksaladi, gohida tanazzulga uchraydi. Bu jihatdan jamiyat a'zolarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Ammo mamlakatning siyosiy tuzilishiga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini bo'lgan ijtimoiy-madaniy jarayonlarga berilgan baho va natijalarga, fuqarolarning ommaviy ongi va qadriyat yo'naliishlariga bo'lgan munosabat o'ta nomuvofiqliklarga sabab bo'laveradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turli sohalardagi mutaxassis olimlar jamiyat barqarorligida konsolidatsiya omillarini qisman o'rgangan bo'lib, jumladan, B.Berdiev O'zbekistonda siyosiy modernizatsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini, Sh.Mamatqulov O'zbekistonda yoshlar faoliyagini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy tahlilini, O.Nazarmatov sog'liqni saqlash sohasini boshqarish mexanizmini takomillashtirishni, M.Yusupov qishloq aholisining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy

masalalari, A.Karimov fuqarolar sog'lig'ini saqlashning fuqarolik-huquqiy normalar vositasida ta'minlash masalalari, F.Umarova Modernizatsiya va o'zbek etnotafakkuridagi yangilanish jarayonlarini, D.Amridinova Jadidchilik ta'lomitida komil inson konsepsiyasining falsafiy-ijtimoiy mohiyatini, A.Qodirov O'zbekistonda ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning ijtimoiy pedagogik texnologiyalari ga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ijtimoiy falsafa tarixida ijtimoiy konsolidatsiya haqidagi g'oyalar ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy yaxlitlikni yaratuvchi va uning mavjudligini qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar va jarayonlar sifatidagi mavzulardan biridir. Ijtimoiy fan shakllanishining klassik davrida (XIX-asr) yaratilgan birdamlikning asosiy konseptualizmi qisman o'rganilgan. Shu bilan birga, insoniyat jamiyatini tabiatining barcha bog'lovchi yoki konyunktiv hodisalarining immanentligini hisobga olgan holda, ular to'g'risida ma'lum bir mulohaza ijtimoiy falsafa fan sifatida shakllanishidan oldin ham paydo bo'lishi kerak edi, deb taxmin qilish mantiqan to'g'ri bo'lar edi.

Aytish kerakki, birdamlik tushuncha, atama sifatida antik mualliflar asarlarida uchramaydi, lekin aslida u polis va davlatga muhabbat (vatanparvarlik), do'stlik, birdamlik kabi epifenomenlari orqali tasvirlangan. Qat'iy aytganda, "vatanparvarlik" atamasi yunon-rim tilidan kelib chiqishiga qaramay, antik davr mutafakkirlari va siyosatchilarining yozuvlari va so'zlarida ham o'zining tavsiflovchi xususiyatlari bilan ifodalanadi va tadqiqotchilar shu asosda vatanparvarlik haqida gapiramiz degan xulosaga kelishadi. Aslida bu tushunchalar ijtimoiy ahamiyati jihatidan mutloqo boshqa-boshqa tushunchalardir.

Xususan, E.V.Rung vatanparvarlik tushunchasi Qadimgi Yunonistonda ham, bugungi kunda ham deyarli bir xil ekanligini isbotlaydi. Muallif ilm-fanda mavjud bo'lgan polis va pan-grek vatanparvarligini bo'lishning qobiliyatsizligini ta'kidlaydi, chunki ular bir xil hodisani aks ettiradi, bizning fikrimizcha, bunga rozi bo'lish qiyin. Bu yerda yagona va juda shartli farq bu ikki o'Ichovning darajasi va mazmuni xususiyatlardadir. "Polis ham, butun Ellada ham yunonlar tomonidan o'z vatanlari sifatida qabul qilingan. Bundan tashqari, polis vatanparvarligida oilaviy va siyosiy imtiyozlar, pan-grek vatanparvarligida esa etnik va ijtimoiy-madaniy imtiyozlar birinchi o'ringa chiqadi". Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, birinchi holatda ijtimoiy konyunksiya mahalliy jamoa darajasida, ikkinchisida esa jamiyat darajasida sodir bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida milliy taraqqiyot masalalariga oid muammolarni holisona hal etish nafaqat davlat siyosatining muhim tamoyili sifatida keng ko'lamli hisoblandi, balki amalga oshirilayotgan islohotlarning natijadorligini namoyon qiluvchi omillarni hisobga olish ham kerak bo'ladi. Negaki, "milliy taraqqiyot", "jamiyatni yuksalishi", "jamiyatni transformatsiyalashuvi", "jamiyat boshqaruvini modernizatsiyalashuv jarayoni"ni va shu bilan birga "jamiyatning kolsolidatsiyalashuvi" singari ijtimoiy-falsafiy qarashlar tizimi ilmiy jihatdan tahlil va tadqiq qilish keng miqyosda dolzarb ahamiyatga ega hisoblanmoqda.

Yangi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida ta'kidlanganidek, "Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi", bu esa jamiyat barqarorligini ta'minlash bevosita jamiyatning kolsolidatsiya jarayonining qay darajada qabul qilinishiga bog'liqdir. Ta'kidlash lozimki, jamiyat taraqqiyoti bosqichida siyosiy ijtimoiy-madaniy tuzumning o'zgarishi avlodlar o'tasidagi qarama-qarshiliklarni chuqurlashtiradi. Bu qarama-qarshiliklarga sababchisi konsolidatsiya jarayonidir. Tadqiqotchi olimlar fikricha, "Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har bir mamlakatda modernizatsiyalash jarayoni jamiyatning ustuvor sohalarida chuqur islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Natijada, jamiyatda an'anaviylikdan voz kechish, eskilik qoldiqlariga barham berish va evolyutsion ijobiy o'zgarishlarning transformatsiyalashuv jarayonlari kechadi". Bu esa o'z navbatida ijtimoiy hayotning quyidagi jabhalarini kolsolidatsiyalashuviga sabab bo'ladi.

"Barqarorlik-(ijtimoiy, ma'nnaviy)-jamiyatdagi tinch-totuvlik, birdamlik va ularni mustahkamlash uchun shart-sharoitning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, kuchlar va siyosiy partiyalar o'rtasidagi hamjihatlik vaziyati; davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy kelishuv holatining muttasil davom etishi" dir.

G'arb olimlari R.Darendrof va A.Kozer "Haqiqiy barqarorlik yo'q, har qanday barqarorlik beqarorlikning arafasi yoki muayyan beqarorlikdan keyingi holati, jamiyatning yangi beqarorlik

ILMIY AXBOROT

oldidan tin olish davri", degan fikrni ilgari surganlar. Bundan farqli tarzda T.Parsons "ijtimoiy tizimning barqarorligi qoidalari"ni ishlab chiqishga harakat qilgan. Uning fikricha, "Har qanday barqaror jamiyatning ijtimoiy tuzilishini tashkil etadigan elementlar faoliyati o'zaro uyg'un bo'lishi shart. Ana shu uyg'unlik doimiy barqarorlik omilidir". Jamiyat barqarorligi bevosita jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy hayotga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida "Harakatlar strategiyasi" va "Taraqqiyot strategiyasi"dagi ustuvor yo'nalishlar va maqsadlar jamiyat taraqqiyotining konsolidatsiyasini namoyon etadi. Shu bilan birga mamlakatni jahon hamjamiyatiga tobora chuqur integratsiyalashib borayotgani, xalqning jahondagi rivojlangan millatlar qatoridan joy olishga intilishi, moddiy – iqtisodiy omillar, yuksak texnologiyalar bilan bir qatorda, ma'naviy omillarni rivojlantirishni ham taqozo etayotganligi bilan bog'liqdir.

Jamiyat hayotining barcha bo'g'inlarida xalq bilan muloqotning turli shakl va vositalari, jumladan, Xalq qabulxonalar, Virtual qabulxonalar, Bosh vazir qabulxonasi, mas'ul va mutasaddi rahbarlarning xalq deputatlari mahalliy kengashlaridagi hisobotlari, sayyor qabullar, ijtimoiy muammolarni, odamlarning yashash sharoitlarini bevosita joylarga chiqib o'rganish kabi usullar keng qo'llanayotgani milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash orqali jamiyat taraqqiyotining konsolidatsiya tamoyillarini takomillashtirishga, pirovard natijada aholi manfaatlari va farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Milliy yuksalish konsepsiyasining tadrijiy rivojlanish bosqichlari "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak", "Inson manfaatlari hamma narsadan ulug", "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi", "Xalq bizdan rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi", "Adolat-qonun ustuvorligida", "Ma'naviyat bo'limgan joyda hech qachon adolat bo'lmaydi!", "Insonlarning dard-u tashvishlarini o'ylab yashash–odamiylikning eng oliy mezonidir" singari tamoyillar hayotga joriy qilinmoqda. Bu esa xalq irodasini barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

"Konsolidatsiya" barcha sohalarda keng ishlatiladi. Jumladan, iqtisodiyotda - o'sish yoki pasayishdan keyin birja kursini barqarorlashtirish ma'nosida, tibbiyotda - bu sinishni davolash jarayoni (suyak kallusining shakllanishi), huquqda - normativ hujjalarni tizimlashtirishning bir turi sifatida foydalilanildi.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi "konsolidatsiya" (lotincha con - birga, solido - mustahkamlash) - biror narsani (shaxslar, guruhlar, tashkilotlar, harakatlar) mustahkamlash, birlashtirish degan ma'noni anglatadi.

Ijtimoiy konsolidatsiya nazariyasida bu tushuncha (lotincha consolido — mustahkamlash, qo'llab-quvvatlash) birlashish jarayonini, ijtimoiy hamjamiyatning jipslashishini, shaxslarning o'zaro ta'sirini kuchaytirishni, jamiyatni tashkil etuvchi guruhlarning birlashishini bildirish uchun ishlatiladi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra V.V.Lokosova va V.P.Shulsning "konsolidatsiya" atamasini ikkita asosiy semantik tarkibni samarali birlashtiradi, deb hisoblashadi. Ular bugungi kunda ijtimoiy voqelikni tavsiflash va tushuntirishga makro-obyektiv va mikro-subyektiv yondashuvlarni sintez qilishga urinishlarning mohiyatini tashkil etadi. U ijtimoiy tizimning turli tuzilmalarining obyektiv integratsiyalashuvi va harakat qiluvchi odamlarning kundalik hayotida subyektiv birdamligi qadriyatlarini birlashtiradi. Shu nuqtai hazardan qaraganda, konsolidatsiya hodisasini o'rganish ko'p bosqichli xarakterga ega bo'lib, uni turli asoslarda va turli ijtimoiy fanlar maktablari tomonidan o'rganiladigan murakkab, ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lgan ko'p bosqichli muammo sifatida qarash mumkin".

XULOSA

Jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini ta'kidlaydi. Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish vaadolatsizlik jazolanishi, basharti podshoning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'oloni to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Амонов Б. А. Жамиятни модернизациялаш концептуал моделларининг сиёсий-фалсафий таҳлили. Сиёсий фанлар доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2019. – Б 14.
2. Дарендорф Р. Современный социальный конфликт: очерк политики свободы. М., 2002. С 41.
3. Дюргейм, Э. О разделении общественного труда / Э. Дюргейм. - М.: Канон, 1996. – С 101.

4. Локосов В.В., Шульц В.П. Основания консолидации общества (Социологические аспекты). М.: РИЦ ИСПИ РН, 2008. – С 168.
5. Маънавият изоҳли луғат. Тошкент. – Б 89.
6. Рунг Э.В. Понятие «патриотизм» и его древнегреческие коннотации / Э.В. Рунг // Проблемы истории, филологии, культуры. - 2013. -№ 2. - С. 307. (304-314).